
SVERDLOVSK VILOYATI AGROSANOAT MAJMU'I VA ISTE'MOL BOZORI VAZIRI BOSHCHILIGIDAGI DELEGATSIYA FARG'ONAGA KELDI

Rossiyaning Sverdlovsk viloyati Agrosanoat majmui va iste'mol bozori vaziri Artyom Baxterev boshchiligidagi rasmiylar hamda yirik ishbilarmonlardan iborat delegatsiya bugun Farg'onaga keldi.

Farg'ona va Sverdlovsk viloyatlari o'rtasida hududlararo hamkorlikni kuchaytirish, transport-logistika, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, meva-savzavot eksporti sohalarida o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirish tashrifdan ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi.

Tashrif dasturi doirasida bugun viloyat hokimining o'rinbosari Alibek Tursunov va soha mutasaddilarining Sverdlovsk viloyati delegatsiyasi bilan uchrashuvi bo'lib o'tadi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-04-24 19:34:02